

## Maydon Tranzistorlarining Afzalligi Va Ularning O`Ziga Xos Xususiyatlari

*Yunusova Ra’no G’aybullayevna<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Maydoniy tranzistor (MT) deb, tok kuchi qiymatini boshqarish uchun o’tkazuvchi kanaldagi elektr o’tkazuvchanlikni o’zgartirish hisobiga elektr maydon o’zgarishi bilan boshqariladigan yarim o’tkazgichli aktiv asbobga aytildi. Maydoniy tranzistorlar turli elektr signallar va quvvatni kuchaytirish uchun mo’ljallangan. MT larda bipolyar tranzistorlardan farqli ravishda tok tashkil bo’lishida faqat bir turdagি zaryad tashuvchilar ishtirok etadi: yoki elektronlar, yoki kovaklar. MTLarda tok hosil bo’lishida faqat bir turli — asosiy zaryad tashuvchilar (elektronlar yoki kovaklar) qatnashgani sababli ular ba’zan unipolyar tranzistorlar deb ataladi.

MTLarda :asosiy zaryad tashuvchilarni harakatlantiruvchi elektrod-istok ( tok manbai), asosiy zaryad tashuvchilar boradigan elektrod - stok, o’rtadagi boshqaruvchi elektrod esa - zatvor deyiladi.Istok bilan stok oralig’idagi qatlam kanal deyiladi.

Maydoniy tranzistorlarning asosiy parametrlari: xarakteristika tikligi S, differensial (ichki qarshiligi)  $R_i$ ,  $\mu$  kuchaytirish koeffitsienti hisoblanadi.

Maydoniy tranzistorlarning bir necha afzalliklari:

1. Katta kirish qarshiligiga ega. ( p-n o’tishli maydonli tranzistorlarda  $10^6 - 10^9 \Omega$ , zatvori izolyatsiyalangan maydonli tranzistorlarda  $10^{13} - 10^{15} \Omega$  bo’ladi.)
2. Xususiy shovqin juda kam. Tok hosil qilishda faqat bitta turdagи zaryad tashuvchi ishtirok etadi, shuning uchun rekombinatsiya yo’q, rekombinatsiya shovqin yo’q.
3. Harorat va radiatsiya ta’siriga chidamli.
4. Integral sxemalarda juda katta zichlikda tranzistorlar hosil qilinadi (integratsiya darajasi yuqori).

**Kalit so’zlar:** tranzistor, emitter, kollektor, baza, maydon tranzistori, bipolyar unipolyar tranzistorlar,elektrod, tok kuchi, anod, katod.

Hozirgi zamon texnikasida tranzistorlar nihoyatda keng qo’llaniladi. Ular ilmiy sohada, sanoatda va turmushda ishlataladigan apparatlarning elektr zanjirlarida elektron lampalarning o’rnini bosadi. Tranzistorlar va yarim o’tkazichli diodlarning elektron lampalar oldidagi afzal tomoni avvalo ancha quvvat va qizish uchun ancha vaqt talab qilib cho’g’lanadigan katodning yo’qligidir. Undan tashqari, bunasboblar elektron lampalarga qaraganda bir necha o’n va yuzlab marta kichik bo’lib, massalari ham juda ko’p marta oz.

Hozirgi zamonda radiotexnika va elektronika rivojlanishi natijasida radioaloqa, radioeshittirish, televiedeniya, radiolakatsiya, radionavigatsiya, radioastronomiya, radioteleboshqarish, elektron hisoblash texnikasi, kompyuter texnologiyasi va boshqa murakkab elektron qurilmalarni asosini tranzistorlar tashkil etadi.

<sup>1</sup> Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyat instituti “Tibbiyatda innovatsion axborot texnologiyalari, Biofizika” kafedrasи assistenti



Tranzistorlarni juda ko'p turlari yaratilgan va ular benuqson, uzoq muddat ishlashi bilan ajralib turadi. Tranzistorlarni yuqoridagi ma'lumotlarda ikki katta sinfga ajratgan edik: bipolyar va maydoniy tranzistorlar. Quyida maydon tranzistorlarining afzalliklari xususida to'xtalib o'tamiz.

Maydoniy tranzistor bu - chiqish toki kirish kuchlanishi bilan boshqariladigan yarimo'tkazggichli asbob. Maydoniy tranzistorlarda chiqish tokiga ta'sir qiluvchi kirish kuchlanishi elektr maydon hosil qiladi. Maydonli tarnzistorlarni kirish qarshiligi juda katta bo'ladi  $100 \Omega$  dan  $1000 \Omega$  gacha bo'lib, ularni tayyorlash texnologiyasi bipolyar tranzistorlarga nisbatan osonroq, shuningdek bipolyar tranzistorlarda kirish qarshiligi kichik bo'ladi. Chunki BT larda chiqish toki baza yoki emitterning kirish toki bilan boshqariladi. Kirish qarshiligi kichik bo'lishi zarur bo'lgan hollarda bipolyar tranzistorni ishlatalish mumkin. Lekin ayrim sxemalar kirish qarshiligi katta bo'lishini taqozo qiladi. Maydoniy tranzistorlarni yaxshi tomoni energiya juda kam talab qiladi va juda ham mayda joy egallaydi. Bu esa juda qulay.

Maydonli tarnzistorlarning chastota xususiyatlari zaryad tashuvchilarining harakat tezligi va kanal uzunligi bilan belgilanadi. Zarrachalar tezligini esa kanaldai maydonkuchlanganligini oshirib ko'paytirish mumkin. Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan maydonli tranzistorlarning chastota diapazoni 1500 MGers gacha borib, uzib-ulanish vaqt 30 ns atrofida bo'ladi. Maydonli tranzistorlar bipolyar tranzistorlar kabi markalanadi. Farqi faqat ikkinchi elementida bo'lib, P harfi qo'yilgan.

Boshqarishda energiya sarflari nuqtai nazaridan maydoniy tranzistorlarni boshqarish bipolyar tranzistorlarni boshqarishga qaraganda tejamliroq olinadi. Bu maydoniy tranzistorlarning hozirgi ommaviyligi orqali tushuntiriladian asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Maydonli tranzistorlarni umumiyligi istokli ulanish sxemasi bipolyar tranzistor uchun umumiyligi emitterli sxemaning o'xshahsi hisoblanadi. Bunday ulanish sxemasi quvvat va tok bo'yicha sezilarli kuchaytirishni berishi mumkinligi bois juda keng tarqagan, bunda stok zanjiri kuchlanishining fazasi o'zgarmaydi.

Integral BT(bipolyar tranzistor)lardan farqli ravishda bir turdag'i MDY integral tranzistorlarda izolatsiyalovchi cho'ntaklar hosil qilish talab etilmaydi. Shuning uchun, bir xil murakkablikka ega bo'lganda, MDY—tranzistorli IMS(integral mantiqiy sxema)lar BTlarga nisbatan kristalda kichik o'lchamlarga ega va yasalish texnologiyasi sodda bo'ladi. Kremniy oksidili MDY ISlarining asosiy kamchiligi—tezkorlikning kichikligidir. Yana bir kamchiligi—katta iste'mol kuchlanishi bo'lib, u MDY ISlarni BT ISlar bilan muvofiqlashtirishni murakkablashtiradi. MDY ISlar asosan uncha katta bo'limgan tezkorlikka ega bo'lgan va kichik tok iste'mol qiladigan mantiqiy sxemalar va KISlar yaratishda qo'llaniladi. MDY ISlarda eng yuqori integratsiya darajasiga erishilgan bo'lib, bir kristalda yuz minglab va undan ko'p komponentlar joylashishi mumkin. MDY-tranzistorli mantiq (MDYTM) asosida yuklamasi MDY-tranzistorlar asosida yaratilgan elektron kalit-invertorlar yotadi. Sxemada passiv elementlaming ishlatilmasligi, IMSlar tayyorlash texnologiyasini soddallashtiradi. Mantiqiy IMSlar tuzishda n yoki p kanali induksiyalangan MDY-tranzistorlardan foydalanish mumkin. Ko'proq n-kanalli tranzistorlar qo'llaniladi, chunki elektronlarning harakatchanligi kovaklarnikiga nisbatan yuqori bo'lganligi sababli mantiqiy IMSlarining yuqori tezkorligi ta'minlanadi. Bundan tashqari, n-MDYTM sxemalar kuchlanish nominali va mantiqiy 0 va 1 sathlari bo'yicha TTM sxemalar bilan to'liq muvofiqlikka ega.

Yuklama va qayta ulanish elementlari bir turdag'i MDY — tranzistorlarda hosil qilingan kalitlar texnologik jihatdan qulay va universal hisoblanadilar. Shu sababli ular KIS va bevosita aloqali O'KISlarda keng qo'llaniladi.

Maydoniy tranzistorlarni tayyorlash texnologiyasi bipolyar tranzistorlarga nisbatan soddaroq. Bundan tashqari, maydonli tranzistorlar mikrosxemalarda kichik yuzani egallaydi va kam tok iste'mol qiladi. Shu sababli kichik o'lchamda bir necha mingdan, o'n minggacha tranzistor va rezistorlarni hosil qilish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan va o'rganilgan ma'lumotlarga asosan maydoniy tranzistorlarning bir necha afzalliklarini keltirib o'tamiz:



1. Katta kirish qarshiligiga ega. ( p-n o'tishli maydonli tranzistorlarda  $10^6 - 10^9 \Omega$ , zatvori izolyatsiyalangan maydonli tranzistorlarda  $10^{13} - 10^{15} \Omega$  bo'ladi.)
2. Xususiy shovqin juda kam. Tok hosil qilishda faqat bitta turdag'i zaryad tashuvchi ishtirok etadi, shuning uchun rekombinatsiya yo'q, rekombinatsiya shovqin yo'q.
3. Harorat va radiatsiya ta'siriga chidamli.
4. Integral sxemalarda juda katta zichlikda tranzistorlar hosil qilinadi (integratsiya darajasi yuqori).

Tranzistorlar yaratilgan paytda kirish qarshiligi tok bilan boshqarilib, ularning kichik ekanligi asosiy kamchiliklaridan biri bo'lib kelgan. Shuning uchun mutaxassislar tomonidan kirish qarshiligi katta bo'lgan maydon tranzistori ishlab chiqarildi. Bu yarimo'tkazgichli asbobda chiqish toki elektr maydon yordamida boshqarilganligi uchun tranzistor maydon tranzistorini olgan.

Maydon tranzistori uch elektrodli yarimo'tkazgichli asbob bo'lib, unda istok, zatvor, kanal va stok sohalari bo'lib, yarimo'tkazgich qatlama qalinligini o'zgarish hisobiga chiqish toki boshqariladi.

Hozirgi vaqtida ikki turdag'i maydon tranzistorlar: p-n-o'tish bilan boshqariladigan tranzistor va MDYA-tranzistor (metal-dielektrik-yarimo'tkazgich strukturali) lardan elektronika sohasida keng foydalaniladi.


Maydon tranzistorining ishlash prinsipi zatvor va istokka qo'yilgan tashqi kuchlanish hisobiga kanal o'tkazgich qatlama qalinligini o'zgarishiga asoslangan. Deylik, istok va stok oraliq'iga tashqi kuchlanish qo'yilgan bo'lsin, ya'ni istokka manbani minus qutbi ulansin. Unda kanal orqali istokdan stok tomon n-tur yarimo'tkazgich plastinkadagi potensiallar farqi ta'sirida elektronlar harakat qila boshlaydi. Zatvorga ham tashqi kuchlanish beriladi, ikkala p-n-o'tishlarga teskari kuchlanish beriladi. Zatvorga berilayotgan kuchlanishni o'zgartirib, n-tur yarimo'tkazgichdagi tashuvchilarni pasaytirish mumkin. Buni amalga oshishiga sabab tranzistor kanal o'tkazgich qatlaming ko'ndalang kesimini o'zgarish hisobiga bo'ladi. Bu narsa kanal qarshiligin o'zgartirib, o'z navbatida maydon tranzistorining chiqish toki Ic ni o'zgartiradi.

Maydon tranzistorini kirish kuchlanishi  $U_z$  dir. Agarda kanalga ketma-ket  $R_c$  rezistorni ulasak, zatvor kuchlanishi  $U_z$  o'zgarishi natijasida mos ravishda  $R_c$  rezistorga tushayotgan kuchlanish ham o'zgaradi. Bu yerda o'tishlar teskari kuchlanish ostida bo'lganligi uchun ularning qarshiligi bo'ladi. Kirish toki esa kanal tokiga nisbatan ancha kichik. Demak, kirish quvvati uncha katta bo'lmay, chiqish quvvati  $I_c$  va  $R_c$  qarshilik bilan aniqlanib, kirishni ancha marta oshiradi. Shunday qilib, maydon tranzistor *kuchaytiruvchi asbobdir*.

Kanal qarshiligini boshqarish usulining yana bir yo'li, yarimo'tkazgich hajmidan izolyatsiyalangan elektrod potensial o'zgarishi kanal qarshiligin o'zgartiradi. Spu prinsipga asoslangan tranzistorlarni zatvori izolyatsiyalangan maydon tranzistorlar deyiladi yoki MDYA-tranzistorlar deyiladi. Ko'pchilik hollarda, dielektrik sifatida kremniy to'rt oksididan ( $\text{SiO}_2$ ) foydalaniladi. MDYA-tranzistorlarni ishlash prinsipi yarimo'tkazgich hajmining qolgan qismidan farqli yarimo'tkazgich hajmi va yarimo'tkazgich sirtidagi izolyatsiyalangan elektrod oraliq'ida zaryad tashuvchilar qatlami vujudga keladi. Shuni hisobiga yarimo'tkazgichda izolyatsiyalangan elektrod kuchlanishni o'zgartirib, zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi yuqori bo'lgan qatlama – kanal hosil qilib uni qarshiligini boshqarish mumkin.

Maydon tranzistorlarining to'la ishlashi chiqish statik volt-amper xarakteristikalar  $U_z = \text{const}$  bo'lganda  $I_c = f(U_c)$  bilan xarakterlanadi (2.3.1- rasm). Deylik, zatvor kuchlanishi  $U_z = U_{zi} = \text{const}$  bo'lsin. Unda istok va stok kuchlanishi  $U_c$  o'zgarishida ( $U_{zi}$  qiymati va  $U_c$  ni qutb kuchlanishi to'g'ri tanlansa) maydon tranzistorida  $I_c$  tok paydo bo'ladi.  $U_c$  kuchlanishni ortishi natijasida xarakteristikaning boshlang'ich qismida  $I_c$  tok chiziqli o'sadi. Keyin kuchlanish  $U_c$  ortishi bilan  $I_c$  o'sishi to'xtaydi. Bunga asosiy sabab, uzunlik bo'yicha kanal kengligi bir xil emas: stokka yaqinlashgan sari kanal yupqalashib boradi. Bu qismlardagi stok tokini zatvorga berilayotgan kuchlanish orqali boshqarish mumkin.





2.3.1 - rasm. Maydon tranzistorlarining chiqish (a) va kirish (b) statik xarakteristikalar.

Maydon tranzistorlarining sifat parametrlariga: S xarakteristik tikligi,  $\mu$  kuchaytirish koeffitsienti va  $R_i$  ichki qarshiligi kiradi.

Maydon tranzistorining S xarakteristik tikligi deganda,  $U_c = \text{const}$  bo'lganda stok toki o'zgarishini zatvor kuchlanishi o'zgarishiga nisbati tushuniladi:

$$S = \frac{\Delta I_c}{\Delta U_z}$$

Maydon tranzistorining  $\mu$  kuchaytirish koeffitsienti deb,  $I_c = \text{const}$  bo'lganda, stok kuchlanishini zatvor kuchlanishi o'zgarishiga nisbatiga aytildi:

$$\mu = \frac{\Delta U_c}{\Delta U_z}$$

Maydon tranzistorining  $R_i$  ichki qarshiligi deb,  $U_z = \text{const}$  bo'lganda, stok kuchlanishini o'zgarishini unga to'g'ri keluvchi stok tokini o'zgarishiga nisbatiga aytildi:

$$R_i = \frac{\Delta U_z}{\Delta I_c}$$

Maydon tranzistorining yuqoridagi parametrlari quyidagicha ham bog'langan:

$$\mu = SR_i$$

Maydon tranzistorlarining ishchi sohasida,  $S = 0,3-3 \text{ mA/V}$ ,  $R_i$  ichki qarshiligi bir necha megaomni tashkil qiladi.

Barcha turdag'i maydon tranzistorlarda taglik yarimo'tkazgichning p - yoki n- turi ishlataladi. Shuning uchun ham maydon tranzistorlari n- va p- turlari bilan farqlanadi. Hozirgi paytda maydon tranzistorlarini 6 xili qo'llaniladi.

Maydon tranzistorlarning zaruriy xususiyatlari ularning kirish qarshiligini ( $10^{15} \text{ Omgacha}$ ) va chegara chastotasini (1 GGsgacha) juda yuqoriligidir. Maydon tranzistorlarini, ayniqsa MDY-tranzistorlarini integral mikrosxemalarda qo'llanilmoqda.

### Xulosha

Maydoniy tranzistorlarning asosiy parametrlari: xarakteristika tikligi S, differensial (ichki qarshiligi)  $R_i$ ,  $\mu$  kuchaytirish koeffitsienti hisoblanadi.

Maydoniy tranzistorlarning bir necha afzalliklari:

1. Katta kirish qarshiligiga ega. ( p-n o'tishli maydonli tranzistorlarda  $10^6 - 10^9 \Omega$ , zatvori izolyatsiyalangan maydonli tranzistorlarda  $10^{13} - 10^{15} \Omega$  bo'ladi.)
2. Xususiy shovqin juda kam. Tok hosil qilishda faqat bitta turdag'i zaryad tashuvchi ishtirok etadi, shuning uchun rekombinatsiya yo'q, rekombinatsiya shovqin yo'q.
3. Harorat va radiatsiya ta'siriga chidamlı.



4. Integral sxemalarda juda katta zichlikda tranzistorlar hosil qilinadi (integratsiya darajasi yuqori).

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Файзиев Ш. Ш. и др. Композицион қопламаларнинг акс эттириш спектрларини ўлчаш, селективлик коэффициентини аниqlash //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 401-404.
2. Kamolov J., Saidov S. Разработка математической модели нестационарного процесса нагрева и охлаждения тонкой пластиинки с керметным покрытием //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. A6. – С. 626-635.
3. Kamolov J., Saidov S. Селективно-поглощающие покрытия на основе металлокерамических материалов //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. A6. – С. 655-663.
4. Djurayevich A. J. Opportunities Of Digital Pedagogy in A Modern Educational Environment //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2021. – Т. 3. – С. 103-106.
5. Djuraevich A. J. Zamonaviy ta'lif muhitida raqamli pedagogikaning o'rni va ahamiyati //Eurasian Journal of Academic Research. – 2021. – Т. 1. – №. 9. – С. 103-107.
6. Ashurov J. D. Nuclear medicine in higher education institutions of the republic of uzbekistan: Current status and prospects //Academica Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 07. – С. 118-121.
7. Djurayevich A. J. Education and pedagogy //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2021. – Т. 3. – С. 179-180.
8. Djourayevich A. J. EXPLANATION OF THE TOPIC " USE OF RADIOPHARMACEUTICALS IN GAMMA THERAPY" IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS USING THE " THOUGHT, REASON, EXAMPLE, GENERALIZATION (THREG) " METHOD. – 2022.
9. Ashurov J. D. THE IMPORTANCE OF ORGANIZING THE COOPERATION BETWEEN TEACHER AND THE STUDENTS IN THE CREDIT-MODULE TRAINING SYSTEM //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 16-24.
10. Ashurov J. KREDIT MODUL TIZIMIDA JORIY QILISHDA O 'QITUVCHI VA TALABALARNING HAMKORLIKDA ISHLASHINING AHAMIYATI //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 6 Part 2. – С. 42-47.
11. Jalol o'g'li J. et al. QOPLAMALARNI MIKROSKOPIYA VA RENTGEN-FAZAVIY TAHLIL USULIDA TADQIQ QILISH ANALIZ //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 198-205.
12. Olimovich S. S., Ugli K. Z. J. To Secure Your Paper As Per UGC Guidelines We Are Providing A Electronic Bar Code.
13. Jalol o'g'li K. J. et al. KERMET QOPLAMALI INGICHKA PLASTINKANI ISITISH VA SOVITISH NOSTASIONAR JARAYONNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH. – 2023.
14. Эркин Ш. и др. Технология получения тонкослойных гетероструктур n-cds/p-cef3 и исследование их электрических свойств //Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 326-338.
15. Erkin o'g'li D. S. QUYOSHDANTUSHAYOTGANNURLANISHNINGENERGIYABALANSI //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 132-135.
16. Erkin o'g'li D. S. New Technologies for Volcanization of Elastomeric Compositions //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 334-337.



17. Davronov S. E. O. G. L. O'ZBEKISTON VA HINDISTON UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FIZIKA FANI DARSLIKLARINING QIYOSIY TAHLILI //Scientific progress. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 223-228.
18. Erkin o'g'li D. S. FTORID-IONLI VA SUPER-IONLI QOPLAMALARINI O'RGANISH. – 2022.
19. Khusniddinovna A. D., Muhiddinovich Z. X. INVESTIGATION OF AUTOMATION OF THE CONTROL UNIT OF THE TURRET HEAD OF THE LATHE //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 11. – C. 346-350.
20. Khusniddinovna A. D. Methods of Testing Logical Control Systems //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 28. – C. 247-249.
21. Абдуллаева Д. Х. ТРЕБОВАНИЯ, ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫЕ К ПРОГРАММНО РЕАЛИЗОВАННЫМ ЛОГИЧЕСКИМ КОНТРОЛЛЕРАМ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – T. 9. – C. 68-71.
22. Абдуллаева Д. Х. Оптимизация Производственной Структуры Предприятия С Применением Многофункциональных Обрабатывающих Центров //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – T. 9. – C. 72-74.
23. Khusniddinovna A. D., Nurilloevich Y. M., Radzhabovich E. D. Use of Computing Platforms of General Purpose as A Hardware Base //International Journal of Human Computing Studies. – 2021. – T. 3. – №. 8. – C. 46-50.
24. Khusniddinovna A. D., Mukhiddinovich Z. K. Approach to Testing Logical Control Systems of Technological Equipment //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2022. – T. 9. – C. 48-52.
25. Temirov S. A. Yorug „lik interferensiyasini o“ rghanishda “phet” da tuzilgan dasturlardan foydalanish //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. 4. – C. 274-277.
26. Temirov S. A. Experimental results of the paraboloid concentrator //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 66-70.
27. Temirov S. KOMPOZITSION QOPLAMALARNING ISSIQLIK BARQARORLIGINI TADQIQ QILISH //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – T. 2. – №. 6 Part 2. – C. 184-187.
28. Temirov S. VAKUUMLANGAN QUYOSH ISSIQLIK QABUL QILUVCHI ELEMENTINING LABORATORIYA MAKETINI SINOV DAN O 'TKAZISH //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 173-177.
29. Atoyevich T. A. et al. diod rejimida ulagan maydon tranzistoriga yorug'lik ta'sirini o'rganish //Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 106-110.

